G‘aybullayeva Dildora Fayzulla qizi (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti dotsenti v.b.; e-mail: dildoragaybullayeva@gmail.com)

INGLIZ TILIDAGI FRAZEONIMLARDA INSONNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING IFODALANISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz tilidagi frazeonimlarda insonning psixologik xususiyatlarining ifodalanishi tahlil qilinadi. Frazeonimlar ifodalagan psixologik holatlar semantik mazmuniga ko‘ra tematik guruhlarga ajratilib, ularning emotsional-ekspressiv, konnotativ va uslubiy xususiyatlari aniqlanadi. Ayrim frazeonimlarning qo‘llanishi kontekst asosida tahlil qilinib, ularning inson ruhiy holatini obrazli va ta’sirchan ifodalash imkoniyatlari ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar*: frazeonim, psixologik xususiyat, psixologik holat, emotsional-ekspressivlik, konnotatsiya, uslubiy xususiyat, kontekstual tahlil.*

Гайбуллаева Дилдора Файзулла кизи (и.о. доцента Узбекского государственного университета мировых языков; e-mail: dildoragaybullayeva@gmail.com)

ВЫРАЖЕНИЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ЧЕЛОВЕКА В АНГЛИЙСКИХ ФРАЗЕОНИМАХ

Аннотация. *В статье анализируется выражение психологических особенностей человека в английских фразеонимах. Фразеонимы распределяются по тематическим группам в соответствии с выражаемыми психологическими состояниями, определяются их эмоционально-экспрессивные, коннотативные и стилистические особенности. На основе контекстуального анализа отдельных фразеонимов раскрываются их возможности образного и выразительного выражения психического состояния человека.*

Ключевые слова*: фразеоним, психологическая особенность, психологическое состояние, эмоционально-экспрессивность, коннотация, стилистическая характеристика, контекстуальный анализ.*

Gaybullayeva Dildora Fayzulla kizi (Acting Associate Professor at the Uzbekistan State University of World Languages; e-mail: dildoragaybullayeva@gmail.com)

THE EXPRESSION OF HUMAN PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS IN ENGLISH PHRASEONIMS

Annotation. *The article analyzes the expression of human psychological characteristics in English phraseonyms. The phraseonyms are classified into thematic groups according to the psychological states they express, and their emotional-expressive, connotative, and stylistic features are identified. A contextual analysis of selected phraseonyms reveals their potential for expressing human psychological states in an imaginative and expressive way.*

Keywords*: phraseonym, psychological characteristic, psychological state, emotional expressiveness, connotation, stylistic feature, contextual analysis.*

Kirish. Frazeologik birliklar tilning obrazli va ekspressiv imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim birliklardan biri bo‘lib, ularning semantik mazmuni, ko‘pincha, konnotativ, emotsional va baholovchi componentlar bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi. Ayniqsa, frazeonimlar tarkibidagi antroponimik komponent orqali muayyan obraz, shaxsiy xususiyat yoki baholash mazmunini ifodalashi bilan boshqa frazeologik birliklardan ajralib turadi.

Ingliz tilidagi frazeonimlarning muhim qismi insonning psixologik holati va xususiyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Bunday birliklarda omad, hayrat, g‘azab, xursandchilik, ishonch, xafalik, vahima, qo‘rqoqlik, jasurlik, xohish-istak, uyqusirash kabi turli psixologik holatlar obrazli tarzda ifodalanadi. Shu jihatdan, frazeonimlarning semantik mazmunini ularning emotsional-ekspressiv va baholovchi xususiyatlaridan ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq emas.

Mazkur maqolaning maqsadi ingliz tilidagi frazeonimlarda insonning psixologik xususiyatlarining ifodalanish xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda frazeonimlarning psixologik mazmunini tematik guruhlash, ularning konnotativ xususiyatlari hamda funksional-uslubiy qo‘llanishini aniqlashga e’tibor qaratiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. So‘nggi yillarda frazeologik birliklarning semantik mazmuni, stilistik imkoniyatlari va kontekstual qo‘llanishi o‘zaro bog‘liq jihatlar sifatida tadqiq etilmoqda. N.Nasrullayeva frazeologik birliklarning semantik mazmuni bilan bir qatorda, ularning stilistik va pragmatik imkoniyatlarini kontekst asosida ochib berish zarurligini ta’kidlaydi [5]. K.Dekatova frazeologik birliklarning stilistik vositalar bilan kontekstual o‘zaro ta’sirini tadqiq etib, ularning ekspressivlikni yuzaga chiqarishda-

gi imkoniyatlarini ko‘rsatadi [3]. A.Aleksaitė publitsistik matnlarda qo‘llangan frazeologik birliklarning stilistik resurslarini tahlil qilib, ularning modifikatsiyasi va emotsional yukni kuchaytirishdagi funksional imkoniyatlariga e’tibor qaratadi [1]. Mazkur tadqiqotlar frazeologik birliklarning semantik, stilistik, kognitiv va pragmatik xususiyatlarini kompleks o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. E.R.Ratushnaya antroponim komponentli frazeologizmlarning konnotativ tarkibida ekspressivlik, emotsionallik va baholash componentlarini ajratadi [7]. Mazkur qarashlar ingliz tilidagi frazeonimlarning insonning psixologik xususiyatlarini ifodalashini semantik, konnotativ va funksional-stilistik jihatdan yaxlit tahlil qilish uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda ingliz tilidagi frazeonimlarning insonning psixologik xususiyatlarini ifodalash imkoniyatlarini aniqlash uchun semantik-stilistik va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi. Frazeonimlarning funksional-stilistik xususiyatlarini belgilashda kitobiy, so‘zlashuv va neytral uslub mezonlariga tayanildi. Ayrim birliklarning ma’no va uslubiy xususiyatlarini aniqlashda komponent va etimologik mezonlardan foydalanildi. Tahliliy materiallar “The Cobuild Dictionary of Idioms”, “Cambridge International Dictionary of Idioms”, “Dictionary of American Idioms” va “Proper Name Idioms and Their Origins” lug‘atlaridan olindi.

Biroq ingliz tilidagi frazeonimlarning insonning psixologik xususiyatlarini ifodalash imkoniyatlari, ularning semantik-stilistik va funksional xususiyatlari o‘zaro bog‘liqlikda yetarlicha tizimli va kompleks tadqiq etilmagan.

Tahlil va natijalar. Ingliz tilidagi frazeonimlarning muhim qismi insonning psixologik holati va xususiyatlarini obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Tahlil jarayonida mazkur birliklar ifodalagan psixologik holatlar semantik mazmuniga ko‘ra quyidagi tematik guruhlarga ajratildi:

Psixologik xususiyat va holat	Frazeonimlar
Omadlilik, baxtlilik	*to have a Midas touch, to hit Jackpot*
Hayrat, lol qolish	*Great Scott!, Gordon Bennet!, By George!*
G‘azab, nafrat	*By the Lord Harry!, For the love Mike!*
Xursandchilik, shodlik, quvonch	*Happy as Larry, Mark Tapley*
Ishonch, ishonish	*sure as God made little green apples*
Ko‘ngilchanlik, yumshoqfe’llilik	*Dutch uncle, like turkeys voting for Christmas*
Xafalik, tushkunlik	*to have Monday morning feeling, feel like Daniel in the lion’s den*
Vahima, xavf-xatar, ko‘ngilsizlik	*the sword of Damocles, War of Jenkin’s ear*
Qo‘rqoqlik, jur’atsizlik	*awkward as a bull in a China shop, to be on one’s Jack Jones*
Jasurlik	*as game as Ned Kelly, as strong as Hercules*
Xohish-istak, orzu-maqsad	*Barkis is willing, Promethean fire*
Uyqusirash, alahsirash, uyqusizlik	*to be the land of Nod, be in the arms of Morpheus*

Mazkur tasnif frazeonimlarning insonning turli psixologik holatlarini obrazli, emotsional va baholovchi tarzda ifodalash imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Psixologik xususiyatni ifodalovchi frazeonimlarning emotsional-ekspressiv xususiyatlari ayniqsa g‘azab va norozilikni bildiruvchi birliklarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Jumladan, quyidagi kontekst bunga misol bo‘la oladi: *“Get my other hat, I must hurry around to the police-station. Why wasn’t somebody looking after her, I’d like to know? For God’s sake, get out of my way or I’ll never get ready!”* [4].

Ushbu kontekstda *for God’s sake!* frazeonim qahramonning kuchli g‘azab holatini ifodalash uchun qo‘llangan. Mazkur birlikning emotsional mazmuni uning kontekstual qo‘llanishi orqali yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. *For God’s sake!, for Christ’s sake, for Pete’s sake, for the love of Pete* kabi birliklar bir xil mazmuniy yo‘nalishga ega bo‘lib, inson jahlining yuqori darajasini ifodalashda qo‘llanadi. *For Pete’s sake, for the love of Pete* birliklari evfemistik xususiyatga ega ekanligi ham qayd etiladi [2]. Frazeonimlarning uslubiy xususiyatini aniqlashda etimologik va komponent mezonlariga tayanish ularning kitobiy va so‘zlashuv uslubiga mansubligini belgilash imkonini beradi. Shu jihatdan, mazkur frazeonimlarning kontekstual funksiyasi qahramon yoki so‘zlovchining ruhiy holatini obrazli ifodalashdan iborat.

Omadlilik va baxtlilikni ifodalovchi Frazeonimlar ham psixologik xususiyatning turli obrazlar asosida voqelanishini ko‘rsatadi. Xususan, *to have a Midas touch* va *to hit Jackpot* frazeologizmlari mazkur ma’noni ifodalovchi frazeologik sinonimlar sifatida namoyon bo‘ladi. *To have a Midas touch* tarkibidagi *Midas* mifokomponenti Rimda yashab o‘tgan afsonaviy shoh nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning qo‘li tekkan narsaning oltinga aylanishi haqidagi tasavvur asosida shakllangan. Shu sababli mazkur frazeologizm asosan

kitobiy, qisman so‘zlashuv uslubida qo‘llanadi. *To hit Jackpot* tarkibidagi *Jack* antroponimik komponenti esa lotereya o‘yinlari bilan bog‘liq bo‘lib, frazeologizm so‘zlashuv uslubiga xosligi va hissiy bo‘yoqdorlikni oshirishi bilan tavsiflanadi.

Mazkur birliklarning real kontekstdagi qo‘llanishi quyidagi misollarda kuzatiladi: *“Some, like the American Civil Liberties Union, say the mogul’s influence may be benign or even positive. But others interviewed suggested the combination of Musk’s libertarian “frat boy” ethics and his Midas Touch for making money could make the divisive social media business model even more toxic”* [8].

Bu kontekstda *Midas Touch* insonning pul topishdagi omad va qobiliyatini obrazli ifodalash uchun qo‘llangan. Birlikning kontekstda *making money* birikmasi bilan birga kelishi uning mazmunini konkretlashtirib, omad va muvaffaqiyat bilan bog‘laydi.

To hit Jackpot AOKFining qo‘llanishi esa quyidagi kontekstda kuzatiladi: *“I wanted a small house with a fireplace, and I really hit the Jackpot with this one”* [6].

Mazkur kontekstda *hit the Jackpot* so‘zlashuv uslubida qo‘llanib, so‘zlovchining istagiga mos kelgan holatdan mamnunligini va omadli natijaga erishganligini obrazli tarzda ifodalashga xizmat qilmoqda. Demak, mazkur AOKFning psixologik mazmuni kontekst orqali konkretlashib, so‘zlovchining ijobiy ruhiy holatini ta’sirchan ifodalaydi. Umuman, frazeonimlar muayyan ruhiy holatni ifodalash bilan birga, emotsionallik, ekspressivlik va baholash orqali uning mazmuniy ta’sirchanligini kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar. Tahlil natijasida frazeonimlarning psixologik mazmuni ularning emotsional-ekspressiv, baholovchi va uslubiy xususiyatlari bilan uzviy bog‘liqligi aniqlandi. Ularning ma’no va uslubiy xususiyatlarini belgilashda semantik, kontekstual, komponent va etimologik mezonlardan foydalanish samarali natija beradi. Shuningdek, frazeonimlarning kontekstual qo‘llanishi insonning ruhiy holatini yanada obrazli va ta’sirchan ifodalashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, frazeonimlarning inson psixologik xususiyatlarini ifodalashdagi imkoniyatlarini yanada chuqurroq yoritish uchun ularni kognitiv va pragmatik aspektlarda tadqiq etish istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, frazeonimlar asosida insonning ruhiy holati va xarakter xususiyatlarining konseptuallashuvi, ularning muayyan kognitiv modellar bilan bog‘liqligi hamda nutqiy vaziyatda kommunikativ va pragmatik maqsadlarni amalga oshirishdagi o‘rni alohida tadqiq etilishi mumkin. Bunday yondashuv frazeonimlarning nafaqat nominativ va ekspressiv, balki kognitiv hamda kommunikativ imkoniyatlarini ochib berish, ularning til va tafakkur, shuningdek, til va nutq o‘rtasidagi munosabatini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Shu sababli ingliz tilidagi frazeonimlarning kognitiv-pragmatik xususiyatlarini chog‘ishtirma aspektda o‘rganish zamonaviy frazeologik tadqiqotlarning istiqbolli yo‘nalishi sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Aleksaitė A. The Stylistic Resources of Occasional Phraseological Units in Rimvydas Valatka’s Comments on Russia’s War in Ukraine // Verbum. 2024, vol. 15, p. 1–11. DOI: 10.15388/Verb.15.10.

(2). Chitova L.A. Proper Name Idioms and Their Origins. Anthology. 2013, 192 p.

(3). Dekatova K.I. The contextual interaction of phraseological units and stylistic devices as a complex stylistic phenomenon // Terra Linguistica. 2024. vol. 15, № 3, p. 47–59. DOI: 10.18721/JHSS.15305.

(4). John M. Paradise Lost. The Morgan Library & Museum. Archived from the original on 21 July 2011. Book Two, p 49. Retrieved 5 Feb 2024.

(5). Nasrullaeva N.Z. The Semantic Meaning of Phraseological Units and their Prototypes // International Journal of Language Learning and Applied Linguistics. 2023, vol. 2, № 11, p. 131–134. DOI: 10.51699/ijllal.v2i11.2992.

(6). Richard A.S. Dictionary of American Idioms. The McGraw-Hill Companies, Inc. 2005, 1098 p.

(7). Ратушная Е.Р. Антропономинирующая парадигма русской фразеологии: семантика, формирование, функционирование. Автореф. дис… докт. филол. наук, Курган, 2001, 52 с.

(8). https://PittisDonCBC News. Apr 28, 2022

Karimov Furqatjon Qahramon o‘g‘li (Guliston davlat universiteti “O‘zbek adabiyotshunosligi” kafedrasi tayanch doktoranti; e-mail: furqatkarim6@gmail.com)

O‘ZBEK ADABIYOTIDA MISTIKANING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotida kam uchraydigan, rivojlanish bosqichidagi mistika yo‘nalishining paydo bo‘lishi, rivojlanish bosqichlari, o‘ziga xos jihatlari ilmiy tadqiq qilingan. Mistika yo‘nalishidagi asarlar istiqlol davrida yangi rivojlanish bosqichiga kirdi. Aslida, bunday yo‘nalishga xos elementlar ancha oldinga xalq og‘zaki ijodi davrida ertak, doston, mif, afsonalarda ham uchraydi. Keyin-*